

"SCIENTIFIC POTENTIAL OF TALENTED YOUTH IN PHARMACY"
MAVZUSIDA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT PHARMACEUTICAL INSTITUTE

"SCIENTIFIC POTENTIAL OF TALENTED YOUTH IN PHARMACY"



TOSHKENT-2025



"Farmatsevtikada iqtidorli yoshlarning ilmiy salohiyati"
mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLAR TO'PLAMI
2025 2-may

Научно-практическая конференция на тему:
"Научный потенциал одарённой молодежи в фармации"
СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
2 мая 2025 года

Scientific and Practical Conference on the Topic:
"Scientific Potential of Talented Youth in Pharmacy"
PROCEEDINGS
May 2, 2025

TAHRIRIYAT

Bosh muharrir

N.S.Normaxamatov

Toshkent farmatsevtika instituti Ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bōyicha prorektor k.f.d.

Mas'ul kotib

I.B.Shermatova

Toshkent farmatsevtika instituti iqtidorli
talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini
tashkil etish bōlimi boshlig'i, PhD

Nashrga tayyorlovchi

Ismoilova Marjona Burxon qizi– Tahrirlovchi

Hikmatova Shukrona Ismat qizi – Texnik
muharrir

Abdiravidov Temurbek Abdimannonovich–
Texnik muharrir



SUYUQ EKSTRAKT TEXNOLOGIYASI VA SIFAT TAHLILI

Omonova M.T., Yuldasheva Sh.X.

Toshkent farmatsevtika instituti

e-mail: shaxlo.dr@gmail.com

tel: (99) 894 618 02 61

Dolzarbli: O'simlik xomashyolaridan olingan burishtiruvchi ta'sirga ega dori preparatlari hozirgi kunda keng qo'llaniladi. Burishtiruvchi ta'sirga ega vositalar yallig'lanishga qarshi mahalliy ta'sir ko'rsatuvchi preparatlar qatoriga kiradi. Ular teri va shilliq qavatlarining yallig'lanish jarayonlarida qo'llaniladi. Shu sababli, biz tadqiqot ishimizni olib borishimizda kimyoviy tarkibi bo'yicha burishtiruvchi ta'sirga ega o'simlik xomashyolaridan acchiq toron va dalachoy o'simligini tanlab oldik. Achchiq toron o'simligi qadim zamonlardan dorivor o'simlik sifatida ishlatib kelinmoqda, bu o'simlik bilan greklar va rimliklar, al-ximiklar foydalanganlar. Achchiq toron tarkibida glikozidlar, vitaminlardan C, K, karotin, flavanoidlar, qandlar, organik kislotalar, oshlovchi achchiq birikmalar va boshqa moddalar bor. Xalq tabobatida damlamasi bezgak, ich ketish, bavoil kasalliklarida hamda qon ketishini to'xtatuvchi va og'riq qoldiruvchi hamda turli yaralarga dori sifatida ishlatiladi. Dalachoy o'simligi mahsulotlari esa yallig'lanishga qarshi, spazmolitik og'riq qoldiruvchi, antiseptik va burishtiruvchi ta'sirga ega.

Tadqiqotning maqsadi: Acchiq toron va dalachoy o'simlik xomashyolaridan suyuq ekstrakt olish va uning sifat tahlilini olib borish tadqiqot ishimizning maqsadi hisoblanadi.

Natijalar: Suyuq ekstrakt olishda quyidagi tanlangan o'simlik xom ashyolaridan achchiq toron yer ustki qismi va dalachoy yer ustki qismi 3-5 mm maydalik darajasida maydalab olindi. Ekstragent sifatida ikki xil quvvatdagi etil spirti tanlab olindi (40% va 70%). Suyuq ekstrakt olishda perkolyatsiya usuli qo'llanildi. Suyuq ekstraktlar tashqi ko'rinishi, quruq qoldig'i, spirt konsentratsiyasi, zichligi, og'ir metallar miqdori O'zR DF, XI DF da berilgan metodlar asosida o'rganildi. Ularning miqdoriy tahlili spektrofotometrik usulda flavonoidlar yig'indisining o'rtacha miqdori (standart rutin hisobida) bo'yicha tahlil qilindi. Bunda 40% li etil spirt yordamida olingan suyuq ekstrakt tashqi ko'rinishi bo'yicha to'q yashil, qo'ng'ir rangdagi tiniq suyuqlik, quruq qoldig'i 2,76%, spirt konsentratsiyasi 35%, zichligi 0,94 g/ml, og'ir metallar miqdori 0,001% dan ortiq bo'lmadi. 70% li etil spirt yordamida olingan suyuq ekstrakt tashqi ko'rinishi bo'yicha to'q yashil, qo'ng'ir rangdagi tiniq suyuqlik, quruq qoldig'i 2,22%, spirt konsentratsiyasi 67,5%, zichligi 0,92g/ml, og'ir metallar miqdori 0,001% dan ortiq bo'lmadi. Miqdoriy tahlil natijalariga ko'ra, 40% li etil spirt yordamida olingan suyuq ekstrakt tarkibidagi flavonoidlar yig'indisining o'rtacha miqdori (standart rutin hisobida) 2,3085% ni; 70% li etil spirt yordamida olingan suyuq ekstrakt tarkibidagi flavonoidlar yig'indisining o'rtacha miqdori (standart rutin hisobida) 2,5796% ni tashkil etdi.

Xulosalar: Acchiq toron va dalachoy o'simlik xomashyolaridan turli konsentratsiyadagi ekstragent ishtirokida suyuq ekstraktlar perkolyatsiya usulida olindi va uning sifat tahlillari o'tkazildi. Natijalarga ko'ra, 70% li etil spirt yordamida olingan suyuq ekstrakt optimal deb topildi.